

Biznes mutaxassisni – 24 yoshida millionerga aylantirgan 10 ta odatlar

Daniel Elli xalqaro biznes mutaxassis, 3 ta bestseller kitoblar muallifi va yetakchi spiker. U “The Ally Way and dignify designs” kompaniyasining asoschisi sifatida u ishbilarmonlarga o`z brendini yaratishga, yozuvchilarni esa bestseller kitoblar yozishga va ularni sotishga yordam berdi. Elli o`zini-o`zi yaratdi va 24 yoshida millionerga aylandi.

Men yaratgan odatlar, meni millioner darajasiga chiqardi. Mana sizni millioner qiladigan 10 ta muhim odat:

1) Nutqingizni soddalashtiring.

Millionerlar o`zlarining oddiy va aniq qilib ifodalashni biladilar. Ular o`zlarining so`zlarini aniqlik bilan ishlatishadi va ular aytayotgan so`zlarda chuqur ma`noga ega bo`ladi. Osonlik bilan gapirishni o`rganish uchun, men mahalliy tost aytish masterlari klubiga qo`shilganman.

2) Eski va zararli odatlaringizdan voz keching.

Yangi narsalarga duch kelishdan avval, siz eski narsadan voz kechishingiz kerak. Siz zararli odatlaringizdan voz kechib, ijobiy odatlarga almashtirishingiz kerak.

3) Kunlik maqsadlaringizni aniqlang.

Har kuni men qog`ozga o`z kunlik maqsadlarimni yozardim. Bu odat sizni kun sayin kuchaytiadi. Har kuni maqsadlar qo`yganingizda ular birinchi navbatda sizni eng muhim narsalarni aniqlab olishga va ularni muhimligi bo`yicha birinchi o`ringa qo`yadi.

4) O`zingizga to`g`ri bo`ling.

Siz o'zingizga nima vada qilgan bo'lsangiz, shuni qilishingiz kerak. Hayotingizda professional maqsadlarga erishish uchun shaxsiy qadriyatingizni qurbon qilish uchun ko'p marta taklif qilishadi. Agar bunday vasvasalar paydo bo'lsa, unga berilmang.

5) Qarorlar qabul qiling.

Qanchalik ko'p qarorlar qabul qilsangiz, shunchalik muvaffaqiyatga erishasiz. Har doim o'zingiz qaror qabul qiling, hatto bu qayerga boshlashini bilmasangiz ham. Tez orada kerakli javoblarni topasiz.

6) Savollar bering.

Ko'pchilik odamlar hamma narsani bilaman deb o'ylashadi. Bu fikrlash, ularni haqiqatni bilishlariga to'sqinlik qiladi. Siz qanday yo'nalishda harakat qilayotganingizni bilish uchun savollar berishingiz kerak.

7) Master bo'ling.

Harv Eker: "har bir master qachonlardir falokat bo'lgan"

8) Tashqi ko'rinishingizga etibor bering.

Har doim tashqi ko'rinishingizga etibor bering. Ko'p o'tmay, siz ko'proq foydali imkoniyatlarni jalb qilayotganingizni sezasiz. Millioner kabi ko'rinish- bu millioner bo'lish uchun eng yaxshi usul.

9) Nimaga qodir bo'lsangiz, undan maksimal foydalaning.

Aksariyat odamlar ka mish qiladilar, ammo maksimal natijalarni kutidilar. Millioner o'z vazifalarini bajarishning eng yaxshi usullarini topadilar. Ular boshqa odamlar va tizimlar yordamida kerakli natijalarga erishish uchun barcha kuch g'ayratlarini ishga soladilar, shuningdek ularning kuchli tomonlarini maqbul tarzda ishlatishadi.

10)“500 qoida” siga amal qiling.

Buni oddiy qilib aytadigan bo'lsak, bu odat menga agar millioner bo'lishni istasam, har oy kamida 500 kishiga xizmatimni taklif qilishim kerakligini ko'rsatadi.